

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MARDONOV KAMOL KAROMAT O'G'LI

**SUD HUJJATLARINI IJRO ETISHDA QONUNLARGA RIOYA ETILISHI
USTIDAN PROKUROR NAZORATI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Mardonov Kamol Karomat o'g'li

Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati.....3

Мардонов Камол Каромат угли

Прокурорский надзор за соблюдением законодательства при исполнении судебных актов.....25

Mardonov Kamol Karomat ugli

Prosecutorial supervision of compliance with legislation in the execution of judicial acts51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

MARDONOV KAMOL KAROMAT O‘G‘LI

**SUD HUJJATLARINI IJRO ETISHDA QONUNLARGA RIOYA ETILISHI
USTIDAN PROKUROR NAZORATI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Yu1649 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va “ZiyoNET” ta’lim axborot tarmog‘ida (www.ziynet.uz) joylashtirildi.

Ilmiy rahbar:

Xidoyatov Baxtiyor Batirovich
yuridik fanlar nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Davlyatov Valisher Xakimjanovich
yuridik fanlar doktori, professor

Shayzakov Shodiyor Ibragimovich
yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 10-sentabr kuni soat 16⁰⁰ da majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko‘chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1418-raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Sayilgoh ko‘chasi 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 25-avgust kuni tarqatildi.
(2025-yil 25-avgustdagi 51-raqamli reestr bayonnomasi).

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

I.B. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

D.B. Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda Rule of law, ya'ni huquq ustuvorligi hamda odil sudlovni ta'minlash sud hujjatlarining ijro etilishiga ko'p jihatdan bog'liq. Negaki, 2025-yilga kelib jahon miqyosida odil sudlovga nisbatan salbiy tendensiyalar yanada kuchayib bormoqda. "Qonun ustuvorligi" (The Rule of Law Index) indikatorlariga ko'ra, mamlakatlarning 66 foizi sudlov bo'yicha indeks ko'rsatkichlari 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 61 foizga past natijalarni qayd etgan. Bu holat odil sudlovning o'z vaqtida ta'minlanmaganligi va ijro ishi samaradorligining pastligi bilan bog'liq¹. Bu kabi holatlarning oldini olish, 2024-yil oktabrda Xalqaro sud ijrochilari ittifoqi (UIHJ) qabul qilgan "Keyptaun deklaratsiyasi"da belgilangan sud hujjatlarini majburiy ijro etish sohasini modernizatsiya qilishga qaratilgan qator ustuvor vazifalarni amalga oshirish, aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarni markazlashtirilgan elektron reestr orqali yuritish, xorijiy sud qarorlarini e'tirof etish uchun "yagona oyna" (one-stop) mexanizmini joriy etish hamda sud ijrochilarini har tomonlama akkreditatsiyalash tizimini kuchaytirish, sud hujjatlarini ijro qilishda prokuror nazoratini tashkil etishning amaliy jihatlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahonda ijro ishini yuritishning samarali tizimini yaratish davlatning qonuniylik va huquq-tartibotni ta'minlash, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, tinchlik va xavfsizlikni ishonchli himoya qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, 40 dan ortiq yurisdiksiyada bank hisoblarini muzlatish va mol-mulkka ta'qiq qo'yish kabi tezkor vositalaridan foydalanish, aktivlar to'g'risidagi ma'lumotlarni markazlashtirilgan elektron reestr orqali yuritish, xorijiy sud qarorlarini e'tirof etish uchun "yagona oyna" (one-stop) mexanizmini joriy etish hamda sud ijrochilarini har tomonlama akkreditatsiyalash tizimini kuchaytirish yuzasidan muayyan natijalarga erishilgan. Shunga qaramasdan, bugungi sharoitda sud hujjatlarining ijro etilmasligi sabablarini aniqlash, sud hujjatlarining ijro etilmasligining sud hujjatlarining samaradorligiga ta'sirini baholash, sud hokimiyati qarorlari hamda ularning mustaqilligini prokuror nazorati vositasi orqali ta'minlash imkoniyatlarini oshirishga oid ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Respublikamizda davlat ijrochilarning o'z vazifalarini qonunga asosan bajarish bilan bir qatorda sud qarorlarini yuqori samaradorlik bilan ijro etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yishi, sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash odil sudlovga erishish maqsadlaridan biri sifatida belgilanib, sud hujjatlarini ijro etishga to'sqinlik qilish holatlarni bartaraf etish va bu borada javobgarlik masalalarini huquqiy tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida prokuror nazoratini ta'minlashda raqamlashtirish va axborot-texnologiyalaridan foydalanish, prokuror nazorati shaffofligini oshirish, sud hujjatlarini ijro etishning samarali mexanizmlarini joriy etish, sud hujjatlarini ijro

¹ WJP Rule of Law Index 2023 Global Press Release | World Justice Project

etishning muqobil, shu jumladan suddan tashqari usullaridan foydalanish ko‘lamini kengaytirish, majburiy ijro organlari faoliyatiga xalqaro standartlarni bosqichma-bosqich joriy etish va ayrim funksiyalarni (sud hujjatlaridan tashqari) xususiy sektorga o‘tkazish, davlat ijrochilari ish yuklamasini kamaytirish¹ sohani isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari va vazifalari etib belgilangan. Ushbu vazifalar sohada prokuror nazoratini ta‘minlashda qonunlarga rioya etilishini ta‘minlash, sud hujjatlari ijrosi bilan bog‘liq odil sudlov samaradorligiga erishish hamda bu borada qonunni qo‘llash amaliyotini yaxshilashga oid masalalarni tadqiq etishni taqozo qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi 257-II-son “Prokuratura to‘g‘risida”, 2001-yil 29-avgustdagi 258-II-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 11-avgustdagi PF-6118-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-3016-son “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-3070-son “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish markazini tashkil qilish to‘g‘risida”, 2019-yil 13-martdagi PQ-4236-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2024-yil 3-yanvardagi PF-1-son “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati va uni takomillashtirish masalalari respublikamizda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur masalaning faqatgina ayrim jihatlarini K.S.Avezov, G.Sh.Burxonova, E.E.Egamberdiyev, A.O.Hamidov, M.M.Mamasiddiqov, M.Q.O‘razaliyev, M.X.Rustambayev, I.R.Rustambekov, Sh.Sh.Shoraxmetov, A.M.Suleymanova, U.A.Tuxtasheva, V.E.Umaraliyev, Yu.A.Xodjiyev, S.B.Xolbayev va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot darajasida o‘rganilgan. Ular orasida Sh.Sh.Shoraxmetov, M.M.Mamasiddiqov va U.A.Tuxtasheva ijro ishi yuritishni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063>

huquq sohasidagi o'rnini, Yu.A.Xodjiyev esa sud qarorlarini majburiy ijro etish shartlari va tartibi bo'yicha izlanish olib borishgan.

Bular orasida yaqin yillarda G.Sh.Burxonova majburiy ijro tizimi boshqaruv faoliyatini huquqiy ta'minlash masalalarining qiyosiy-huquqiy tahlili, A.O.Hamidov sud qarorlari ijrosini ta'minlashning tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish masalalari mavzusida ilmiy tadqiqot olib borgan.

MDHga a'zo davlatlarda sud hujjatlari ijrosini ta'minlashning ayrim jihatlari A.X.Ageev, Yu.A.Artemeva, Sh.K.Akchabayev, Ye.Abaydeldinov, K.L.Branovitskiy, D.X.Valeev, Ye.N.Voronov, Ya.P.Gorbunova, V.A.Gureev, O.P.Gurev, V.V.Dmitriev, O.V.Isaenkova, I.M.Zaytsev, V.V.Zaxarov, M.A.Klepnikova, Ye.N.Kuznetsov, D.A.Mardanov, A.M.Morozova, M.Musin, I.V.Reshetnikova, Z.Z.Sattarova, M.S.Sergeyev, S.L.Sergeyeva, S.I.Semenova, Ye.G.Streltsova, N.Sergiyenko, N.V.Troshina, M.K.Filippov, M.Yu.Chelishv, M.K.Yukov, V.V.Yarkov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Xorijlik olimlardan J. Schneider (Germaniya), Zdenek Oxonski (Chexiya), Yan Skumal (Chexiya) va boshqalar tomonidan mazkur mavzuning muayyan masalalari tadqiq etilgan¹.

Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarning barchasi tor xususiyatga ega bo'lib, sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash muammolari kompleks o'rganilmagan. Shu munosabat bilan mazkur masalaning tashkiliy-huquqiy va amaliy jihatlari kompleks o'rganish amaliyotda yuzaga kelayotgan ayrim muammolarni bartaraf etish hamda sohani tartibga soluvchi qonunchilik normalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot ishining mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy tadqiqotlar rejasiga kiritilgan hamda "Odil sudlovni amalga oshirish muammolari" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi sud hujjatlarini (jazolarni ijro etish muassasalari va probatsiya xizmatlaridan tashqari) ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, ahamiyati hamda ushbu faoliyat bilan bog'liq muammolarni tahlil etish, o'rganilgan manba va tadqiqot materiallari asosida aniqlangan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan taklif va xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, uning qonuniylikni ta'minlashdagi o'rni hamda ahamiyatini aniqlash;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati institutining nazariy-huquqiy asoslari va uning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati predmeti, obykti va chegarasiga oid masalalarni yoritish;

prokurorning sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan

¹ Bu va boshqa manbalar dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida ko'rsatilgan.

nazorat faoliyati hamda uni tashkil etish turlari, usullari va uslubiyotini o'rganish;
sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati hujjatlarini qo'llash amaliyotini tahlil qilish;

ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarda sud hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlash va nazorat qilishining o'ziga xos jihatlarini qiyosiy tahlil qilish;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati faoliyatini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish;

prokurorning sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat faoliyati ta'sirchanligini oshirish istiqbollari prognoz qilish va belgilash, shuningdek sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda prokuror nazorati amaliyotini yaxshilash bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida sud hujjatlarini ijro etishda (jazolarni ijro etish muassasalari va probatsiya xizmatlari faoliyatidan tashqari) qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqot predmetini sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash bilan bog'liq qonunchilik normalari, mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar hamda tadqiqotga doir amaliyot materiallari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli, mantiqiy (analiz, sintez), qiyosiy-huquqiy, statistik, ijtimoiy so'rovlar o'tkazish, huquqni qo'llash amaliyotini tahliliy o'rganib chiqish usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sud hujjatlarining ijrosini ta'minlash, uning monitoringi mexanizmini takomillashtirish uchun mol-mulk yo'qligi sababli undiruv amalga oshirilmagan qarzdorlar hisobini aniq yuritish, mol-mulk va pul mablag'lari aniqlanganda ijro majburiyatini bajarish imkoniyatini ta'minlash maqsadida "Majburiyatlar reestri"ni joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

fuqarolarning minimal kundalik turmush ehtiyojlarini inobatga olish zarurligi sababli undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromad belgilanishi, ularning bank hisobvaraqlaridan, jumladan bank kartalaridan ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorlik bo'yicha pul mablag'larini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yarmidagi mablag'lar hisobidan ushlab qolish (hisobdan chiqarish) taqiqlanishi lozimligi asoslantirilgan;

davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni saqlash, hisobini yuritish va sotish tartibiga rioya etilishi ustidan nazorat funksional vazifasiga mos bo'lganligi sababli tegishli Majburiy ijro byuro (MIB)sining hududiy boshqarmalari tomonidan amalga oshirilishi lozimligi asoslantirilgan;

ijro hujjati bo'yicha ijro ishini soddalashtirilgan tartibda yuritishda ijro hujjatini berishga asos bo'lgan sud yoki boshqa organ hujjati bekor qilingan yoxud haqiqiy emas deb topilganda qonuniylikni ta'minlash maqsadida davlat ijrochisi ijro hujjatini bergan sudni yoki boshqa organni tegishli axborot olingan kunning ertasidan kechiktirmay ijro ishini yuritish tugatilganligi haqida xabardor qilish

lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish prokuror nazorati predmeti sifatida belgilanishi zarurligi asoslangan;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish faoliyatida qonun buzilishi holatlarini oldini olish, ularni erta aniqlash va bartaraf etish, prokuror nazoratini qonun buzilish ko'p yoki muntazam ravishda sodir etilayotgan sohalarda tashkil etish maqsadida prokuratura organlarida "xavfni tahlil etish" tizimini joriy etish zarurligi asoslangan;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishni raqamlashtirish, Majburiyatlar reestriga integratsiyaga qilingan "e-sudhujjatnazorat" himoyalangan maxsus elektron axborot tizimi platformasi orqali masofadan turib amalga oshirilishi tartibini joriy etish asoslangan;

prokuror nazoratini amalga oshirishda chek-listlar va elektron monitoring tizimlari nazoratning bir xilligi, shaffofligi va natijadorligini ta'minlashi, shuningdek ijro ishini barvaqt tamomlash, sansalorlik va talon-toroj kabi holatlar nazorat indikatorlari sifatida belgilanishi lozimligi asoslangan;

sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining samaradorligini baholash uchun obyektiv mezonlar (KPI) joriy etilishi, bunda faktik ijro bilan yakunlangan ishlar ulushi, ijro muddatlari, bekor qilingan qarorlar ulushi, takroriy shikoyatlar soni inobatga olinishi lozimligi asoslangan;

sud hujjatlarini ijro etishga mas'ul organni mustaqil organ – O'zbekiston Respublikasi Majburiy ijro byorosi sifatida qayta tashkil etish lozimligi asoslangan;

sud hujjatlarini ijro etish sohasiga xususiy sektor – kollektorlar va xususiy ijro byurolarini jalb qilish mazkur sohadagi muammolarni hal etishning huquqiy hamda institutsional yechimi bo'lishi asoslangan;

prokurorning davlat ijrochilarining ish yurituvida bo'lgan hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar va boshqa hujjatlarni talab qilishga, sud hujjatlarini ijro etishga vakolatli organlar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda idoraviy va noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga, davlat ijrochilari va katta davlat ijrochilaridan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqli ekanligi asoslangan;

undiruvchi qarzdorga tegishli bo'lgan mol-mulkdan foydalangan holda, undan olinadigan daromadni tasarruf qilish huquqini qarz summasi to'liq undirilguniga qadar qo'lga kiritishi lozimligi asoslangan;

davlat ijrochisining qarorlari ustidan shikoyat berish va protest keltirishning tartib-qoidalariga ko'ra ixtiyoriy tanlov asosida uchta organdan biriga, ya'ni tegishli ijro hujjatini qabul qilgan sudga, yuqori turuvchi organ yoki mansabdor shaxsga va prokurorga shikoyat qilish ketma-ketligini qat'iy tarzda belgilash lozimligi asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonunchilik normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, 500 dan ortiq prokuratura organlari xodimlari va professor-

o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari, 2020–2025-yillardagi prokuror nazoratiga oid statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishlarini olib borishda, “Prokurorlik faoliyati”, “Sud hokimiyati”, “Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish”, “Ijro ishi yuritish” kabi fanlarni o'qitish jarayonida hamda metodik tavsiyalar tayyorlashda foydalanishda, sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlashga qaratilgan qator qoida va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash bilan bog'liq muammolarning yechimini topishga xizmat qilishida, shuningdek amaliy xulosalar, qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflardan qonun ijodkorligi jarayonida, sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining qonunni qo'llash amaliyotida, yuridik oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayonida foydalanilishi mumkinligida ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq etish asosida:

sud hujjatlarining ijrosini ta'minlash, uning monitoringi mexanizmini takomillashtirish uchun mol-mulk yo'qligi sababli undiruv amalga oshirilmagan qarzdorlar hisobini aniq yuritish, mol-mulk va pul mablag'lari aniqlanganda ijro majburiyatini bajarish imkoniyatini ta'minlash maqsadida “Majburiyatlar reestri”ni joriy etish lozimligi to'g'risidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF–1-son Farmonining ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 20-dekabrda 27/2-363-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining ijrosini ta'minlash, uning monitoringi mexanizmini takomillashtirishga, shuningdek “Majburiyatlar reestrini joriy etish va uning ishlash mexanizmini yanada yaxshilashga xizmat qilgan;

fuqarolar minimal kundalik turmush ehtiyojlarini inobatga olish zarurligi sababli undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromad belgilanishi, ularning bank hisobvaraqlaridan, jumladan bank kartalaridan ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorlik bo'yicha pul mablag'larini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yarmidagi mablag'lar hisobidan ushlab qolish (hisobdan chiqarish) taqiqlanishi lozimligi haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 3-yanvarda qabul qilingan “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish tizimini isloh etish va sohani raqamlashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF–1-son Farmonining ikkinchi bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh

prokuraturasining 2024-yil 20-dekabrda 27/2-362-24-sonli dalolatnomasi). Ushbu taklifning inobatga olinishi fuqarolardan qarzdorlik uchun undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan eng kam kafolatlangan daromad belgilanishiga hamda fuqaroning bank hisobvaraqlaridan, jumladan bank kartalaridan ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorlik bo'yicha pul mablag'larini mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining yarmidagi mablag'lar hisobidan ushlab qolish taqiqlanishiga oid qoidaning belgilanishiga xizmat qilgan;

bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravariga teng va undan ortiq qiymatdagi mol-mulkni olib qo'yishning har bir holati bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingunga va mol-mulk davlat daromadiga o'tkazilgunga qadar bo'lgan jarayon alohida nazoratga olinishi hamda mol-mulkning yagona hisobi yuritilishi lozimligiga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 28-dekabrda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 128-son buyrug'ining 3.6-bandini ikkinchi xatboshi bilan to'ldirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2020-yil 11-sentabrda 222-son buyrug'ini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 23-dekabrda 27/2-366-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravariga teng va undan ortiq qiymatdagi mol-mulkni olib qo'yishning har bir holati bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingunga va mol-mulk davlat daromadiga o'tkazilgunga qadar bo'lgan jarayon alohida nazoratga olinishi hamda mol-mulkning yagona hisobi yuritilishi ustidan prokuror nazoratining ta'minlanishiga xizmat qilgan;

prokurorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni ta'minlash bilan bir qatorda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tizimida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining belgilangan tartib va umumiy shartlarga amal qilgan holda ijro etilganligiga alohida e'tibor qaratish lozimligi"ga oid taklifdan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 28-dekabrda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda hamda qamoqqa olinganlarni saqlashda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat samaradorligini oshirish to'g'risida"gi 128-son buyrug'ining uchinchi bandini ikkinchi xatboshi bilan to'ldirish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2020-yil 11-sentabrda 222-son buyrug'ini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 23-dekabrda 27/2-365-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi prokurorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni ta'minlash bilan bir qatorda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi tizimida sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarining belgilangan tartib va umumiy shartlarga amal qilgan holda ijro etilganligiga alohida e'tibor qaratishga, pirovardda sud hujjatlarining ijro etilishi samaradorligini yanada yaxshilashga xizmat qilgan;

davlat ijrochisi jarima tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo'yicha ijro ishi yuritishni qo'zg'atish to'g'risida qaror chiqarish

bilan bir vaqtda hukm qilingan shaxsning yoki qarzdorning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash haqidagi qaror qabul qilishi shartligi”ga oid takliflardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmatining 2019-yil 23-oktabrdagi qarori bilan tasdiqlangan “Sud hujjati asosida berilgan ijro hujjatini yoki ijro hujjati bo‘lgan sud hujjatini uzrsiz sabablarga ko‘ra ijro etmagan qarzdor jismoniy shaxsning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklashni ta’minlash yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining hamkorligi tartibi to‘g‘risida”gi Nizomni 6¹-band bilan to‘ldirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining 2024-yil 23-dekabrda 27/2-364-24-sonli dalolatnomasi). Mazkur taklifning inobatga olinishi davlat ijrochisi jarima tariqasidagi jinoiy jazoni ijro etishni nazarda tutuvchi ijro hujjatlari bo‘yicha ijro ishi yuritishni qo‘zg‘atish to‘g‘risida qaror chiqarish bilan bir vaqtda hukm qilingan shaxsning yoki qarzdorning O‘zbekiston Respublikasidan chiqishini vaqtincha cheklash haqidagi qaror qabul qilishi sud hujjatlarining ijro etilishi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy mazmuni va xulosalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya, dissertatsiyaning asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 10 ta (shundan 3 tasi xorijiy jurnallarda) maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, sakkizta paragrafni o‘z ichiga olgan uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Ishning hajmi 156 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, tadqiqotni olib borishda foydalanilgan usullar, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi va dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining umumiy tavsifi**” deb nomlanib, unda sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati tushunchasi, uning qonuniylikni ta’minlashdagi o‘rni hamda ahamiyati, shuningdek sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati institutining nazariy-huquqiy asoslari va uning o‘ziga xos xususiyatlari

yoritilgan.

Ushbu bobda prokurorning nazorat faoliyati davlat mavjud bo'lishining zarur shartlaridan biri hisoblanishi, ushbu faoliyat tashkiliy-huquqiy jihatdan Konstitutsiyaga rioya etilishini, mamlakat hududida amal qiluvchi qonunlarning ijrosini, shuningdek sud hujjatlarini ijro etishni nazorat qilish maqsadida rasmiylashtirilishi qayd etilgan.

Sud tomonidan qabul qilingan hujjatlarni ijro etmaslik, jamiyatda sud tizimining nufuziga putur yetkazilishi bilan birgalikda, o'z haq-huquqlarini va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida sudga murojaat qiluvchi shaxslarning shaxsiy ishonchi yo'qolishiga ham olib keladi. Sud hujjatlarining o'z vaqtida va to'liq ijro qilinishi juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki sud hujjatlarini o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarilmasligi, avvalo milliy qonunchiligimizning huquqiy asosi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan normalarga zid hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 138-moddasiga ko'ra sud hokimiyatining hujjatlari barcha davlat organlari va boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar hamda fuqarolar uchun majburiydir. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi qonunining 10-moddasida ham qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlari barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolar uchun majburiydir hamda O'zbekiston Respublikasining butun hududida ijro etilishi shartligi, sud hujjatini ijro etmaslik qonunda belgilangan javobgarlikka sabab bo'lishi belgilangan. Chunki, sud hujjatlarini o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarilmasligi, birinchi navbatda sud hujjatlarini ijro qilish jarayonida oliy yuridik kuchga ega bo'lgan huquqiy hujjat – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilab qo'yilgan fuqarolarning huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishiga olib keladi. Sud hujjatlarini ijro etish odil sudlovning yakunlovchi bosqichi bo'lib, sud tomonidan chiqarilgan qarorlarni amalga qo'llash uchun muhim vosita hisoblanadi. Dissertant sud hujjatlarini ijro etmaslik ijtimoiy xavfli qilmish hisoblanib, JK 232-moddasida jinoiy javobgarlik belgilanganligiga ham e'tibor qaratgan.

Dissertant "sud hujjati" tushunchasini aniqlashtirib, uni quyidagicha tushuntirgan – tegishli umumiy yurisdiksiya sudi yoki iqtisodiy sud tomonidan chiqarilgan va qonuniy kuchga kirgan sud hujjati (sud buyrug'i, ajrim, qaror, hal qiluv qarori, hukm), shuningdek hakamlik sudlari va chet davlat sudlarining hal qiluv qarorlari asosida belgilangan tartibda chiqarilgan ijro varaqalari.

Dissertant sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini o'rnatilishining ijtimoiy zarurati quyidagi mezonlarda namoyon bo'lishini asoslantirgan: 1) sud hujjatlarining ijro etilmasligi sudlar tomonidan odil sudlovni amalga oshirishga to'sqinlik qiladi, shuningdek, fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarda belgilab qo'yilgan huquq va qonuniy manfaatlarini buzilishiga olib keladi hamda jamiyat va davlat manfaatlariga zarar yetkazadi; 2) sud hujjatlarining ijro etilmasligi sud hujjatlarining samaradorligini pasaytiradi va sud hokimiyati tomonidan chiqarilgan hujjatlarning ta'sirchanligiga ta'sir ko'rsatadi; 3) sud hujjatlarining ijro etilmasligi fuqarolarning sud hokimiyatiga nisbatan shaxsiy ishonchi yo'qolishiga olib keladi va odil sudlov himoyasidan foydalanish imkoniyatiga to'sqinlik qiladi; 4) sud hujjatlarini ijro etmaslik ko'pchilik holatlarda nafaqat sudning obro'siga ta'sir ko'rsatish bilan

birgalikda, balki iqtisodiy zarar yetkazishiga ham olib keladi; 5) sud hujjatlarining ijro qilinmasligi qarzdor manfaatlariga xizmat qilib, undiruvchini tang ahvolda qolishiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotchi tomonidan o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlar sud hujjatlari ijrosini yuritishning o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini qayd etishgan, jumladan respondentlarning 36 foizi maxsus predmet va huquqiy tartibga solish usuliga egaligini, 28,8 foiz respondent ijro ishi yuritishning umumiy va maxsus prinsiplarga egaligini, 16,2 foiz respondent ijro ishi yuritish bilan bog'liq alohida qonun hujjatlarining mavjudligini; 29 foiz respondent mazkur turdagi nazorat o'z subyektlariga ega ekanligini qayd etgan.

Dissertatsiyada xorijiy mamlakatlarda majburiy ijro hujjatini undiruvchi yoki ijro hujjatini chiqargan organ tomonidan taqdim etilganda amalga oshirilishiga ko'ra quyidagi bo'linish taklif etilgan: majburiy ijro organlari faoliyatini tashkil etishda xususiy-huquqiy tamoyillar ustuvor mamlakatlar; ommaviy-huquqiy tamoyillar ustuvor mamlakatlar.

Dissertant so'nggi yillarda sud hujjatlarini ijro etish tizimida qator islohotlar amalga oshirilganligini qayd etib, ularni xronologik tartibda yoritgan.

Dissertant sud va ijro o'zaro bir-birlaridan mustaqil hokimiyat bo'g'ini, deb hisoblaydi.

Ishning mazmunan hal etilishini belgilaydigan sud hujjatlari, ya'ni hal qiluv qarori, hukm va qarorlar chiqarish orqali sudlar o'zlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishadi va davlat-huquqiy vakolatlarini amalga oshiradilar. Agarda sud tomonidan chiqarilgan hujjatlar amalda ijro etilmasa sud odil sudlovni amalga oshiruvchi organ sifatida o'zining haqiqiy vazifasini to'liq bajarmagan bo'ladi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustdagi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 4-moddasiga muvofiq, prokuratura organlarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida sud va boshqa organlar hujjatlarini ijro etilishida qonunlar ijrosi ustidan prokuror nazorati, uning doirasi va predmeti belgilanmaganligiga ham e'tibor qaratgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Prokurorning sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat faoliyatini tashkil etish"** deb nomlanib, unda sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati predmeti, obykti va chegarasiga oid masalalar, prokurorning sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat faoliyati: uni tashkil etish turlari, usullari va uslubiyoti hamda sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati hujjatlarini qo'llash amaliyoti tahlil qilingan.

Mazkur bobda sud hujjatlarini ijro etish sohasida prokuror nazorati faoliyatining asosiy mezonlari sifatida quyidagilar belgilangan: faoliyatning tizimli tahlil asosida tashkil etilganligi, nazoratning samaradorligi va sohada aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilganligi, shu jumladan, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritilganligi; sud hujjatlarini ijro etishda undiruvning amalda ta'minlanishi orqali fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishiga erishilganligi; tekshirishlarning qonun doirasida, har tomonlama, to'liq va xolisona o'tkazilganligi, prokuror nazorati hujjatlarining asosli va sifatligi; sohaga oid murojaatlarning belgilangan muddatlarda qonuniy hal etilganligi; prokuratura

xodimlarining kasb mahoratini oshirish borasidagi tadbirlar samaradorligi; sohadagi prokuror faoliyatining takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqilganligi.

Dissertant ta'kidlashicha, bugungi kunga qadar, sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining nazariy asoslari adabiyotlarda yoritilmagan. Sababi, ushbu mavzu doirasida mamlakatimiz miqyosida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Ijro ishi yuritish sohasida qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati "Prokuratura to'g'risida"gi qonunda va boshqa yuridik adabiyotlarda ham umumiy ma'noda prokuratura organlarining qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish yo'nalishi doirasidagi funksiyalari qatoriga kiritib ketilgan. Lekin, hozirgi paytda amaliyot natijalariga e'tibor qaratiladigan bo'lsa, sud hujjatlarini ijro etishda ijro ishini yuritishga vakolatli organlar tomonidan sohaga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining aniq yo'nalishlarini ishlab chiqilishi ham ancha dolzarb masala hisoblanadi.

Dissertant O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni hamda sohaga oid boshqa qonun hujjatlarining aniq va bir xilda ijro etilishi ustidan nazoratni ta'minlashda prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha ajratgan: sud hujjatlarini belgilangan tartib va umumiy shartlarga amal qilgan holda ijro etilganligiga; majburiy ijro etish asoslari va choralarning qonunga muvofiqligiga; undiruvni qarzdorning mol-mulki yoki ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlariga qaratishning asosiligi; qarzdorning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish choralari ko'rilganligiga; qarzdorning mol-mulki belgilangan tartibda, oshkora va bozor qiymatida haqqoniy baholanib, realizatsiya qilinganligiga; mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarining ijro etish shartlariga amal qilinganligiga; undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning qat'iy navbatiga rioya etilganligiga alohida e'tibor qaratish; ijro hujjatlarini ro'yxatga olish, ijro ishi yuritishni qo'zg'atish, ijro harakatlarini olib borish, to'xtatish va tamomlash va tugatishda muddat va tartibga rioya qilinishi ustidan qat'iy nazoratni ta'minlash; qonunchilikda darhol ijro etilishi belgilangan, ya'ni alimentlar hamda uch oydan oshmagan ish haqini undirish; qonunga xilof ravishda mehnat shartnomasi bekor qilingan yoki qonunga xilof ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni ishga tiklash to'g'risidagi, mehnat shartnomasini bekor qilish asosining ta'rifini o'zgartirish to'g'risidagi, shuningdek ijro hujjatida bayon etilgan talablar darhol ijro etilishi hujjatda ko'rsatilgan yoki darhol ijro etilishi qonunda nazarda tutilgan hollardagi boshqa ishlarga doir talablarning ijrosi ustidan muntazam nazorat o'rnatish; jarima tariqasidagi jazo ijro etilishining ahvolini tekshirishda, mahkum hukm qonuniy kuchga kirgan kundan boshlab bir oylik (o'n sakkiz yoshga to'lmaganlar olti oylik) muddat ichida jarimani ixtiyoriy ravishda to'lamagan taqdirda majburiy undirish bo'yicha ijro harakatlari o'tkazilganligiga; jarima tariqasidagi jazoni jazoning boshqa turi bilan almashtirishda qonunchilikda belgilangan tartib va muddatlarga rioya etilganligiga alohida e'tibor qaratish.

Davlat ijrochilari tomonidan sohaga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati qonunchilik ijrosini tekshirish orqali olib boriladi. Bunda qonunbuzilish holatlari qonuniylik ahvolidagi monitoringi, jismoniy va yuridik

shaxslarning murojaatlari, nazorat-tekshiruv organlarining materiallarini ko'rib chiqish orqali aniqlanadi. Prokuratura xodimlari tomonidan olib borilgan tekshiruvlar davomida davlat ijrochilarining qonun buzishlari yoki tegishli qonun normalariga rioya etmaslik holatlari aniqlanganida, avvalo, qonunbuzilishiga huquqiy baho beriladi. Nazorat olib boruvchi prokuror qonunbuzilishining xususiyatlari va javobgarlik asoslarini aniqlaydi hamda uning turini belgilaydi.

So'ngra haqiqatdan ham qonunbuzilish holati o'z tasdig'ini topsa, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining sud hujjatlarini ijro etishda qonunchilik ijrosi ustidan prokuror nazoratini olib borishga mas'ul bo'lgan boshqarmasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahar, viloyatlar va ularga tenglashtirilgan prokuraturalari mas'ul tarmoqlarining xodimlari, tuman (shahar) prokurorlari yordamchilari (katta yordamchilari) tomonidan javobgarlik chorasini qo'llash masalalari hal qilinadi. Qonunbuzilishlarining xususiyatiga qarab, O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi Qonunining 37-moddasida keltirilgan jinoiy, ma'muriy, intizomiy yoki moddiy javobgarlik to'g'risida ish qo'zg'atish haqida qaror yoxud boshqa prokuror nazorati hujjatlaridan biri qo'llaniladi.

Prokuratura organlari tomonidan sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya qilinishi ahvoli tizimli tahlillar asosida har yarim yilda umumlashtirilib, uning natijalariga ko'ra qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotidagi muammolarni bartaraf etish hamda qonunchilikni va ushbu sohadagi amaliyotni takomillashtirish borasida aniq takliflar berib boriladi. Bundan tashqari, prokuratura organlari ijro hujjatlari bo'yicha ma'lumotlarning elektron bazaga o'z muddatida, to'liq va haqqoniy kiritib borilishi ustidan ham tizimli nazorat olib boradilar. Bu jarayonda sudlar va boshqa vakolatli davlat organlaridan tegishli ma'lumotlar olgan holda solishtirmalar o'tkaziladi.

Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlari doirasida o'rganish natijalariga ko'ra, davlat ijrochilari tomonidan sud hujjatlarini ijro etish sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishda "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni va sohaga oid boshqa qonunchilik hujjatlariga rioya qilish davomida yuklatilgan vazifalarni hamda nazoratni yetarli darajada bajarilmayotganligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu yo'nalishdagi holatlarni tahlil qilib Qonunni ijro varaqasidagi xatoliklarni shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizim va vositalari yoki davlat ijrochilarini planshet vositalari yoxud ijro harakatlarini amalga oshirish vaqtida ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorliklarni undirish masalalari bo'yicha yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlarning barcha axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilingan tizim orqali bartaraf etish imkoni mavjud bo'lsa ijro hujjatini qaytarishga yo'l qo'yilmasligiga oid norma bilan to'ldirish maqsadga muvofiqligi haqida xulosaga kelgan.

Dissertant sud hujjatlarini ijro etishda prokuror nazoratiga oid amaliyot hujjatlarini o'rganib, asosan quyidagi qonunbuzilish holatlari ko'p uchrashini aniqlagan: ijro muddatlarining buzilishi; jinoyatlar oqibatida fuqarolarga, korxonalar va tashkilotlarga, davlatga yetkazilgan moddiy zararlarni undirish; undiruvlarni fuqarolarning ish haqi va unga tenglashtirilgan boshqa manbalarga qaratish; davlat daromadiga o'tkazilgan, xatlangan mol-mulklarni realizatsiya qilish; voyaga

yetmaganlarning moddiy ta'minotiga oid aliment to'lovlari bilan bog'liq ijro ishlarini yuritilishida qonun talablariga rioya qilinmasligi; statistik hisobotlar va boshqa nazorat qiluvchi idoralar bilan tuzilayotgan taqqoslash dalolatnomalarida ma'lumotlarni buzib, haqiqiy ahvolni ko'rsatmaslik; fuqarolarning murojaatlarini muddatida ko'rib chiqmaslik yoki ularga belgilangan muddatlarda javob bermaslik va boshqa. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish faoliyatida qonunbuzilishi holatlarining oldini olish, ularni erta aniqlash va bartaraf etish, prokuror nazoratini qonunbuzilish ko'p yoki muntazam ravishda sodir etilayotgan sohalarida tashkil etish maqsadida prokuratura organlarida "xavfni tahlil etish" tizimini joriy etish zarur, degan xulosaga kelingan.

Xuddi shuningdek, dissertant tadqiqot davomida o'rganilgan amaliyot hujjatlari tahlili asosida MIBning tegishli hududlari faoliyatida aniqlangan eng ko'p xato va kamchiliklar quyidagilar bilan bog'liqligini aniqlagan: sud hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro hujjatlari hamda undirilgan mablag'larning haqqoniy hisobini yuritish, ijro ishini yuritishda sansalorlik va suiiste'molchilik holatlarining oldini olish choralari ko'rish holati yetarli emasligi; "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida"gi Nizom ijrosiga mas'ul bo'lgan organlar faoliyati ustidan prokuror nazoratining sustligi; aniqlangan muammolarni joyida hal etish, respublika darajasida hal etilishi mumkin bo'lganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni esa tegishli boshqarmaga muntazam taqdim etish amaliyotining yo'lga qo'yilmaganligi va boshq.

Dissertatsiyaning **"Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan xorijiy tajriba hamda prokuror nazoratini takomillashtirishning ayrim masalalari"** deb nomlangan uchinchi bobi ayrim rivojlangan xorijiy davlatlarda sud hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilik ijrosini ta'minlash va nazorat qilishining o'ziga xos jihatlari, shuningdek sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati faoliyatini tashkil etishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish hamda prokurorning sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazorat faoliyati ta'sirchanligini oshirish istiqbollari masalalariga bag'ishlangan.

Jumladan, MDH mamlakatlarida sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining olib borilishi bir-biriga juda o'xshash. O'zbekistondan farqli ravishda Rossiyada sud ijrochilari maxsus kiyim kiyib, o'qotar quroldan foydalanishadi. Lekin shunday bo'lsada, sud ijrochilari qonun doirasidan chetga chiqib, ijro shi yuritishda qatnashuvchi shaxslarga jismoniy kuch ishlatishlari va qurol bilan tahdid qilishlariga yo'l qo'yilmaydi. Agar sud ijrochisi ijro ishi yuritish davomida maxsus quroldan o'zgarar manfaatlariga zid ravishda foydalansa, holat yuzasidan albatta vakolatli prokurorning tekshiruv o'tkazishi zarur bo'ladi. Ozarbayjon, Armaniston, Belarus Respublikalari va Rossiya Federatsiyasida sud hujjatlarini ijro etish organi Adliya vazirligi huzurida tashkil etilgan bo'lib, ushbu davlatlar hududlarida Adliya vazirligi ijro organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqadi, ular faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda nazoratini amalga oshiradi. Qirg'iziston Respublikasi hududida qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini to'liq, o'z vaqtida majburiy ijrosini ta'minlash yuzasidan faoliyatni Oliy sud huzuridagi Sud ijrochilar xizmati olib boradi. Sud ijrochilar xizmati – sud ijrochilari va sud pristavlari xizmati

faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazoratini amalga oshiradi.

Qozog‘iston Respublikasida ijro ishi yuritish Qozog‘iston Respublikasining Konstitutsiyasi, Fuqarolik protsessual kodeksi, “Ijro ishi yuritish va sud ijrochilarining maqomi to‘g‘risida”gi Qonun va boshqa qonun hujjatlari asosida tartibga solinadi. Qozog‘iston Respublikasida ham O‘zbekiston Respublikasidek ijro ishi yuritish sohasida sud ijrochilari va boshqa shaxslar tomonidan qonunlarga rioya etilishi ustidan samarali prokuror nazorati o‘rnatilgan.

Qozog‘iston Respublikasida ijro ishi yuritishni qonuniyligini ta‘minlashda prokuratura organlarining asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi: sog‘ligi yoki yoshiga ko‘ra himoyaga muhtoj bo‘lgan, o‘z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshira olmaydigan shaxslarning huquq va manfaatlarini amalga oshirishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish; sud hujjatlarini ijro etishga vakolatli bo‘lgan organlarning mansabdor shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan ijro harakatlarini aniq va bir xilda qo‘llanilishi ustidan nazorat olib borish; ijro ishi yuritishga vakolatli bo‘lgan mansabdor shaxslarning harakatlari yoki harakatsizliklari ustidan kelib tushgan shikoyatlarni nazorat qilish. Prokuror nazorati faoliyatini amalga oshirish davomida qonunbuzilish holatlari aniqlansa, ushbu qonun buzilish holatini keltirib chiqargan sud ijrochilariga nisbatan qonunda belgilangan tartibda javobgarlik ta‘sir choralari qo‘llaniladi. Masalan, ma‘lum bir sud ijrochisi tomonidan ijro ishi yuritish jarayonida noqonuniy tartibda qaror qabul qilinganligi aniqlansa, prokuror ushbu qarorni bekor qilish haqida davlat yoki xususiy sud ijrochisining rahbariga protest keltiradi. Agarda ijro ishi yuritish noqonuniy asoslarga ko‘ra to‘xtatilgan bo‘lsa, prokuratura organlari uni darhol ijroga tiklash va ijro etish bo‘yicha choralar ko‘radi. Shu bilan birgalikda ijro ishi yuritish sohasida aniqlangan qonunbuzilish holatlariga qarab, boshqa prokuror nazorati hujjatlari ham qo‘llanilishi mumkin.

Belarus Respublikasida sud qarorlarini qonunga muvofiqligi va ularni ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat olib borish prokuror nazoratining alohida bir yo‘nalishi bo‘lib, ushbu yo‘nalish barcha sud qarorlarining qonuniyligi va asoslilikini tekshirishga yo‘naltirilgan. Prokuratura organlarining nazorat predmeti iqtisodiy, fuqarolik va jinoyat sudlari tomonidan chiqarilgan sud qarorlari va iqtisodiy sudning apellatsiya instansiyasi qarorlarini qonunga muvofiqligini tekshirish hisoblanadi. Biroq, amaldagi qonunchilikda prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari sifatida, shuningdek prokuror nazorati predmeti sifatida sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat mustahkamlanmagan. Shu sababdan dissertant mazkur masalalarni qonunchilikda aks ettirish yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqqan.

Dissertant tadqiqot davomida yana bir qiziq jihatga e‘tibor qaratgan. Ya‘ni, O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi Qonunda mulkiy xarakterdagi ijro hujjatlari yuzasidan undiruvchining talablarini qanoatlantirishda, qarzdorning qarzini belgilangan tartibda faqat undiruv asosidagina amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Qarzdorga tegishli bo‘lgan mol-mulkka nisbatan ham egalik huquqi, ham foydalanish huquqi, ham tasarruf qilish huquqi birgalikda realizatsiya, ya‘ni sotilib, mulk huquqi qarzdordan butunlay begonalashtirilgan holda undiruvchining talablari qondirilishi nazarda tutilgan. Biroq, bir qator xorijiy davlatlarning ijro sohasidagi qonunchiligini o‘rganish natijasida dissertant qarzdorning qarz majburiyati uning

ma'lum bir mol-mulkka nisbatan tasarruf qilish huquqini o'zida saqlab qolgan holda, undiruvchiga ushbu mol-mulkdan ham foydalanish, ham egalik qilish huquqini, shuningdek ushbu mol-mulkdan keladigan daromadni tasarruf qilish huquqini ham berish orqali undiruvchining talablarini qondirish mumkin, degan xulosaga kelgan.

O'rganilgan xorijiy davlatlar tajribasi asosida O'zbekiston Respublikasida sud hujjatlarini ijro etishga mas'ul organ – MIBni alohida mustaqil organ sifatida qayta tashkil etilishi maqsadga muvofiqligi ilgari surilgan hamda ushbu tizimning bir necha afzalliklari keltirilgan.

XULOSA

Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirish masalalarini tadqiq etish natijalari yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan:

I. Ilmiy-nazariy xulosalar

1. *Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati* – prokuratura organlarining Konstitutsiya va qonun bilan berilgan vakolatlar doirasida davlat idoralaridan mustaqil ravishda amalga oshiradigan, sud hujjatlarini ijro etish sohasida qonunbuzilishi holatlarini o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktika qilish, huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish hamda sohada qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirish faoliyatidir.

2. *Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining predmeti* – prokuratura organlari tomonidan sud hujjatlarini majburiy ijro etishda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, jismoniy yoki yuridik shaxslar zimmasiga pul mablag'lari va boshqa mol-mulkni o'zga shaxslarga berish yoxud ular foydasiga muayyan harakatlarni amalga oshirish yoki bunday harakatlarni amalga oshirishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklash huquqi berilgan boshqa organlarning (mansabdor shaxslarning) hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiqligi va ular tomonidan qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning qonun talablariga muvofiqligini tekshirish hisoblanadi.

3. *Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining obyekt*i – sud hujjatlarini majburiy ijro etish zimmasiga yuklatilgan davlat ijrochilari tomonidan sud hujjatlarini ijro etilishi bilan bog'liq faoliyati sanaladi.

4. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining maqsadiga nazorat faoliyati oldida turgan vazifalarni amalga oshirish orqali erishiladi. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishdan maqsad – sud hujjatlarini ijro etish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarga asosan ijro va undiruv faoliyatining tashkil etilganligini tahlil qilish, mazkur yo'nalishlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazorati sifatini ta'minlashga munosib hissa qo'shishdan

iboratdir.

5. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini ta'minlash nafaqat huquqiy himoya vositasi, balki davlat boshqaruvining zamonaviy mexanizmi sifatida ham qaraladi. Bu nazorat inson huquqlarini himoya qilish, ortiqcha majburlov choralarning oldini olish va sud qarorlarining real ijrosini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

6. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining quyidagi eng asosiy uchta xususiyati farqlangan:

ushbu sohadagi prokuror nazorati yo'nalishlarining keng qamrovliligi;

sud hujjatlarini ijro etishga mas'ul shaxslar mansabdor shaxs ekanligi hamda prokuratura tizimi xodimi ekanliklari;

mazkur faoliyatda nafaqat qonunbuzilishi va huquqbuzarliklarni aniqlash hamda ta'sir choralarni qo'llash, balki sud hujjatlarini ijro etishga mas'ul shaxslar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikni oldini olish hamda profilaktika muhim o'rin tutishi.

7. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish faoliyati tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan: *“Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish faoliyati – ijro ishi yuritish sohasida davlat ijrochilari tomonidan qonunlarga rioya etilishi, har bir ijro harakatining o'z vaqtida va qonunga asosan amalga oshirilishi, bu borada jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini samarali ravishda himoya qilinishi ustidan nazorat olib borishda ifodalanadi”*.

8. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshiruvchi prokuratura organlari xodimlarining huquqiy maqomi tushunchasiga mualliflik ta'rifi ishlab chiqilgan: *“Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshiruvchi prokuratura organlari xodimlarining huquqiy maqomi – bu mazkur sohada nazoratni amalga oshiruvchi subyektlarning huquq normalari bilan belgilangan holati, layoqati, huquq va majburiyatlaridir”*.

9. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining asosiy yo'nalishlari quyidagicha tasniflangan:

sud hujjatlarini belgilangan tartib va umumiy shartlarga amal qilgan holda ijro etilganligi ustidan nazorat;

majburiy ijro etish asoslari va choralarning qonunga muvofiqligi ustidan nazorat;

undiruvni qarzdorning mol-mulki yoki ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlariga qaratishning asosligi ustidan nazorat;

qarzdorning mol-mulkini xatlash va realizatsiya qilish choralarni ko'rilganligi ustidan nazorat;

qarzdorning mol-mulki belgilangan tartibda, oshkora va bozor qiymatida haqqoniy baholanib, realizatsiya qilinganligi ustidan nazorat;

mulkiy xususiyatga ega bo'lmagan nizolar bo'yicha ijro hujjatlarining ijro etish shartlariga amal qilinganligi ustidan nazorat;

undirilgan pul summalarini taqsimlash va undiruvchi talablarini qanoatlantirishning qat'iy navbatiga rioya etilganligi ustidan nazorat;

ijro hujjatlarini ro'yxatga olish, ijro ishi yuritishni qo'zg'atish, ijro

harakatlarini olib borish, to'xtatish, tamomlash, tugatishda muddat va tartibga rioya qilinishi ustidan nazorat;

darhol ijro etilishi belgilangan, ya'ni alimentlar hamda uch oydan oshmagan ish haqini undirish; mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetishi, shuningdek boquvchisining o'limi natijasida ko'rilgan zararni qoplash uchun to'lovlar undirish; mehnat shartnomasi g'ayriqonuniy ravishda bekor qilingan xodimni yoki g'ayriqonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazilgan xodimni avvalgi ishiga tiklash to'g'risidagi, shuningdek mehnat shartnomasini bekor qilish asoslarining ta'rifini o'zgartirish; darhol ijro etilishi hujjatda ko'rsatilgan yoki qonunda nazarda tutilgan hollardagi boshqa ishlarga doir talablarning ijrosi ustidan nazorat.

II. Qonunchilikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

10. O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'g'risida"gi Qonuni 4-moddasi to'qqizinchi xatboshisini quyidagi tahrirda to'ldirish taklif etilgan:

"4-modda. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Prokuratura organlari o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradi:

...

ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari, *shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;*"

11. Qonunning 4-bobi nomini quyidagi tahrirda o'zgartirish taklif etilgan:

"4-bob. Ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari, *shuningdek sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat*".

12. Qonunning 30-moddasini quyidagi mazmundagi beshinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etilgan:

"30-modda. Nazorat predmeti

Quyidagilar nazorat predmeti hisoblanadi:

...

sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish;"

13. Qonunning 31-moddasi birinchi qismini quyidagi mazmundagi to'qqizinchi xatboshi bilan to'ldirish taklif etilgan:

"31-modda. Prokurorning vakolatlari

Prokuror ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralari ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshira borib, o'z vakolatlari doirasida:

....

davlat ijrochilarining ish yurituvida bo'lgan hujjatlar va materiallarni ko'rishga, tekshirishlar o'tkazishga, tekshirish uchun qarorlar va boshqa hujjatlarni talab qilishga, sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishga vakolatli organlar, korxonalar, muassasa va tashkilotlarda idoraviy va

noidoraviy tekshirishlar o'tkazish uchun mutaxassislar ajratishni talab qilishga, davlat ijrochilari va katta davlat ijrochilaridan qonun buzilishi xususida og'zaki yoki yozma tushuntirishlar talab qilishga haqli".

14. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonunning 24-moddasini quyidagi mazmundagi ikkinchi qism bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Foydasiga sud qarori qabul qilingan shaxslarning qonuniy manfaatlarini hamda sud qarorlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash maqsadida ijro varaqasida undiruvchi va qarzdorning nomi, manzillari, ular jismoniy shaxs bo'lsa, tug'ilgan sanasi va joyi, ish joyi, qarzdor jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami, qarzdor yuridik shaxs bo'lsa, uning soliq to'lovchi sifatida identifikatsiya raqamlari kabilar ko'rsatilmagan yoki xato ko'rsatilgan yoxud to'liq ko'rsatilmagan bo'lsa, bu kabi xatoliklarni shaxsni identifikatsiyalashning mavjud tizimi yoki davlat ijrochilarining planshet vositalari yoxud ijro harakatlarini amalga oshirish vaqtida ijro hujjatlari yuzasidan qarzdorliklarni undirish masalalari bo'yicha yagona idoralararo elektron hamkorlik tizimi orqali davlat organlari va tashkilotlarning barcha axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalariga integratsiya qilingan tizim orqali bartaraf etish imkoni mavjud bo'lsa, ijro hujjatini qaytarishga yo'l qo'yilmaydi".

15. Ushbu Qonunning 47-moddasini quyidagi mazmundagi o'n uchinchi qism bilan to'ldirish taklif etilgan:

"Qarzdor unga ashyoviy huquqlar asosida tegishli mol-mulk (muomaladan chiqarilgan yoxud muomalada bo'lishi cheklangan mol-mulk bundan mustasno)ka ega bo'lgan hollarda undiruvchi va qarzdor o'rtasida sud tomonidan tasdiqlangan kelishuv bitimiga muvofiq undiruv ushbu ashyoviy huquqdan foydalanish, egalik qilishdan keladigan daromadga ijro hujjatini ijro etish uchun zarur bo'lgan miqdorda va hajmda qaratiladi".

16. O'zbekiston Respublikasining JK 232-moddasi birinchi qismini quyidagi tahrirda o'zgartirish taklif etilgan:

"232-modda. Sud hujjatini ijro etmaslik

Muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi, *shuningdek mulkiy tusga ega sud hujjatini jami bo'lib ikki oydan ortiq muddat mobaynida bajarishdan bo'yin tovlash, shunday qilmish uchun ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin sodir etilgan bo'lsa, — ...*

17. O'zbekiston Respublikasining MJtK 198²-modda (Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik)sini 182¹-modda sifatida uning obyektiga mos ravishda mazkur Kodeksning XIV bobi (Odil sudlovga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik)ga o'tkazish taklif etilgan.

18. Mazkur sohadagi muammolarni hal etishning huquqiy hamda institutsional yechimi sifatida sud hujjatlarini ijro etish sohasiga xususiy sektor – kollektorlar va xususiy ijro byurolarini jalb qilish va uning huquqiy asoslarini mustahkamlash taklif etilgan (*Ilova qilinadi*).

19. Sud hujjatlari ijrosini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek, davlat ijrochilarining ijro ishi yuritishda ishtirok etayotgan shaxslar bilan o'zaro munosabatlarini hamda maxsus moslamalardan foydalanishini tartibga solish maqsadida xizmat vazifalarini mobil videokameradan foydalangan holda

oshkora olib borish, ijro ishi yuritishda ishtirok etayotgan shaxslarga mobil videokameradan foydalanayotganini ma'lum qilish va kelgusida noqonuniy xatti-harakatlar sodir etsa, aybini isbotlash uchun videoyozuvdan foydalanishi mumkinligi haqida ogohlantirishni nazarda tutuvchi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan belgilanadigan davlat ijrochisining mobil videokameradan foydalanish tartibi ishlab chiqilgan (*Ilova qilinadi*).

III. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar

20. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini tashkil etishda prokurorlar davlat ijrochilari tomonidan undirilgan mablag'larni talon-toraj qilinishining oldini olish, davlat ijrochilariga nisbatan mansab yoki xizmat mavqeini suiiste'mol qilganlik yoki vakolat doirasidan chetga chiqqanlik uchun javobgarlik choralari qat'iy qo'llashga asosiy e'tiborni qaratishlari lozimligi asoslantirilgan.

21. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirish faoliyatida qonun buzilishi holatlarini oldini olish, ularni erta aniqlash va bartaraf etish, prokuror nazoratini qonunbuzilish ko'p yoki muntazam ravishda sodir etilayotgan sohalarda tashkil etish maqsadida prokuratura organlarida "*xavfni tahlil etish*" tizimini joriy etish zarurligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

22. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishni raqamlashtirish, Majburiyatlar reestriga integratsiyaga qilingan "*e-sudhujjatnazorat*" himoyalangan maxsus elektron axborot tizimi platformasi orqali masofadan turib amalga oshirilishi tartibi joriy etish taklif etildi. Bunda sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratiga doir "P" shakldagi hisobotni raqamlashtirishda hisobotlarga har bir tekshirish va o'rganish materiallari elektron yig'ma jildini kiritish hamda quyi turuvchi prokurorlar tomonidan qo'llanilgan prokuror nazorati hujjatlari qonuniyligi, asosliliigi va sifatini yuqori turuvchi prokurorlar tomonidan elektron ravishda muntazam o'rganib borishlari imkoni yaratiladi.

23. Prokuror nazorati faoliyatida zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurati, prokuror nazoratini amalga oshirishda chek-listlar va elektron monitoring tizimlari nazoratning bir xilligi, shaffofligi va natijadorligini ta'minlashi asoslantirilgan. Jumladan, bunda ijro ishini barvaqt tamomlash, sansalorlik va talon-toraj kabi holatlar nazorat indikatorlari sifatida belgilanishi maqsadga muvofiq.

24. "Prokuror nazorati" *elektron axborot tizimida* sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratini amalga oshirishda alohida "Sud hujjatlari ijrosi nazorati" deb nomlangan bo'lim tashkil etib, prokurorlarning ushbu sohadagi faoliyatini uslubiy ta'minlash maqsadida sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining har bir yo'nalishi bo'yicha tekshirish obyektlari, nazorat obyektlarida o'rganilishi lozim bo'lgan majburiy talablar (tekshirish indikatorlari) va ularning qonuniy asoslari elektron reestrini yuritish hamda ularni muntazam yangilab borish tizimini joriy etish, sud hujjatlari ijrosiga oid qonunchilikka rioya etilishi ustidan prokuror nazoratiga oid ma'lumotlarini elektron shaklda yig'ish, saqlash, o'rganish va tahlil qilish

imkonini beradi.

25. Tadqiqot davomida o'rganilgan amaliyot hujjatlari tahlili natijasida MIBning tegishli hududlari faoliyatida aniqlangan eng ko'p xato va kamchiliklar quyidagilar bilan bog'liqligi va prokuror nazoratini amalga oshirishda e'tibor qaratilishi lozimligi asoslangan:

sud hujjatlarining so'zsiz ijrosini ta'minlash, ijro hujjatlari hamda undirilgan mablag'larning haqqoniy hisobini yuritish, ijro ishini yuritishda sansalorlik va suiiste'molchilik holatlarining oldini olish choralarini ko'rish holati yetarli emasligi;

“Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida”gi Nizom ijrosiga mas'ul bo'lgan organlar faoliyati ustidan prokuror nazoratining sustligi;

aniqlangan muammolarni joyida hal etish, respublika darajasida hal etilishi mumkin bo'lganlari to'g'risidagi ma'lumotlarni esa tegishli boshqarmaga muntazam taqdim etish amaliyotining yo'lga qo'yilmaganligi va boshqalar.

26. Sud hujjatlarini ijro etishda qonunlarga rioya etilishi ustidan prokuror nazoratining samaradorligini baholash uchun obyektiv mezonlar (KPI) joriy etilishi, bunda faktik ijro bilan yakunlangan ishlar ulushi, ijro muddatlari, bekor qilingan qarorlar ulushi, takroriy shikoyatlar soni inobatga olinishi lozimligi, shuningdek risk-asosli rejalashtirish yondashuvi tekshiruvlarning samaradorligini oshirishi asoslangan.

27. Mulkiy xarakterdagi ijro hujjatlari yuzasidan undiruvchining talablarini qanoatlantirishda, qarzdorning qarzini belgilangan tartibda faqat undiruv asosidagina amalga oshirish emas, balki undiruvchining mulkdan foydalanish, egalik qilish, ushbu mol mulkdan keladigan daromadni tasarruf qilish huquqiga ega bo'lishiga oid institutni qo'llash asoslangan.

28. O'zbekiston Respublikasida sud hujjatlarini ijro etishga mas'ul organ – MIBni alohida mustaqil organ sifatida qayta tashkil etilishi maqsadga muvofiqligi asoslangan.

29. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2009-yil 10-apreldagi qarorining:

3-bandini quyidagi tahrirda o'zgartirish taklif etilgan: *“Surishtiruv, tergov organlari va sudlar e'tibori shunga qaratilsinki, JK 232-moddasi birinchi qismi dispozitsiyasida nazarda tutilgan muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash uchun jinoiy javobgarlik nomulkiy hamda mulkiy xususiyatga ega bo'lgan sud hujjatini, ya'ni muayyan harakatlarni sodir etish yoxud ularni sodir etishdan o'zini tiyish majburiyatini yuklovchi, shuningdek jinoyat natijasida yetkazilgan mulkiy zararni qoplashda ifodalanadigan sud hujjatni bajarishdan bo'yin tovlaganda vujudga keladi”*;

4-bandini quyidagi tahrirda o'zgartirish taklif etilgan: *“Sud hujjatini bajarishdan bo'yin tovlash deganda, shaxs tomonidan nomulkiy hamda mulkiy xususiyatga ega qonuniy kuchga kirgan sud hujjati talabini bajarishdan bo'yin tovlash bo'yicha qilingan har qanday harakat tushunilishi lozim”*.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЮРИДИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЮРИДИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

МАРДОНОВ КАМОЛ КАРОМАТ УГЛИ

**ПРОКУРОРСКИЙ НАДЗОР ЗА СОБЛЮДЕНИЕМ
ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА ПРИ ИСПОЛНЕНИИ СУДЕБНЫХ АКТОВ**

12.00.07 – Судебная власть. Прокурорский надзор. Организация правоохранительной деятельности. Адвокатура

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по юридическим наукам (Doctor of Philosophy)

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за №B2024.4.PhD/Yu1649.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном юридическом университете.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, английском, русском, (резюме)) на веб-странице Научного совета (<https://tsul.uz/uz/fan/avtoreferatlar>) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net.uz).

Научный руководитель:

Хидоятов Бахтияр Батирович
кандидат юридических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Давлятов Валишер Хакимжанович
доктор юридических наук, профессор

Шайзаков Шодиёр Ибрагимович
доктор философии по юридическим наукам, доцент

Ведущая организация:

Академия Правосудия Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится 10 сентября 2025 года в 16⁰⁰ на заседании Научного совета DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03 при Ташкентском государственном юридическом университете (Адрес: 100047, г.Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +998)71-233-66-36; факс: +9989 71-233-37-48; e-mail: info@tsul.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного юридического университета (зарегистрирована за № 1418) (Адрес: 100047, г. Ташкент, улица Сайилгох, 35. Тел.: +998 71-233-66-36).

Автореферат диссертации разослан 25 августа 2025 года.
(протокол реестра №51 от 25 августа 2025 года).

А.А. Отажонов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

И.Б. Джураев

Научный секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

Д.Б. Базарова

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор юридических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире верховенство права (Rule of Law), а также обеспечение справедливого правосудия во многом зависят от исполнения судебных актов. Поскольку к 2025 году в глобальном масштабе негативные тенденции в отношении справедливого правосудия ещё более усиливаются. Согласно индикаторам «Верховенство закона» (The Rule of Law Index), в 2024 году 66 процентов государств по показателям индекса правосудия зафиксировали результаты на 61 процент ниже по сравнению с 2023 годом. Данное обстоятельство связано с несвоевременным обеспечением справедливого правосудия и низкой эффективностью исполнительного производства¹. Для предотвращения подобных явлений необходимо реализовать ряд приоритетных задач, определённых в «Кейптаунской декларации», принятой Международным союзом судебных исполнителей (UINJ) в октябре 2024 года, направленных на модернизацию сферы принудительного исполнения судебных актов, в том числе: ведение сведений об активах посредством централизованного электронного реестра, внедрение механизма «единого окна» (one-stop) для признания иностранных судебных решений, усиление системы всесторонней аккредитации судебных исполнителей, а также совершенствование практических аспектов организации прокурорского надзора при исполнении судебных актов.

В мире созданию эффективной системы исполнительного производства уделяется особое внимание в рамках научных исследований, направленных на обеспечение законности и правопорядка, надёжную защиту прав и свобод человека, интересов общества и государства, мира и безопасности. В частности, в более чем 40 юрисдикциях достигнуты определённые результаты в использовании таких оперативных инструментов, как замораживание банковских счетов и наложение ареста на имущество, ведение сведений об активах посредством централизованного электронного реестра, внедрение механизма «единого окна» (one-stop) для признания иностранных судебных решений, а также усиление системы всесторонней аккредитации судебных исполнителей. Вместе с тем, в современных условиях требуется проведение научных исследований, посвящённых выявлению причин неисполнения судебных актов, оценке влияния неисполнения судебных актов на эффективность судебных решений, а также изучению возможностей повышения уровня обеспечения независимости и обязательности судебной власти посредством прокурорского надзора.

В нашей республике наряду с исполнением государственных исполнителями своих обязанностей на основе закона, ими ставится цель обеспечения высокой эффективности исполнения судебных решений, при этом прокурорский надзор за соблюдением законов при исполнении судебных актов определяется в качестве одной из целей достижения справедливого правосудия. В данном контексте проводятся значительные работы по

¹ WJP Rule of Law Index 2023 Global Press Release | World Justice Project

устранению препятствий в исполнении судебных актов и совершенствованию законодательства, регулирующего вопросы ответственности в этой сфере. Кроме того, в Указе Президента Республики Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы» в качестве основных направлений и задач реформирования сферы определены: цифровизация и использование информационных технологий при осуществлении прокурорского надзора, повышение прозрачности прокурорского надзора, внедрение эффективных механизмов исполнения судебных актов, расширение масштабов применения альтернативных, в том числе внесудебных способов исполнения судебных актов, поэтапное внедрение в деятельность органов принудительного исполнения международных стандартов и передача отдельных функций (за исключением исполнения судебных актов) частному сектору, снижение нагрузки на государственных исполнителей¹. Данные задачи обуславливают необходимость проведения научных исследований, направленных на обеспечение соблюдения законов при осуществлении прокурорского надзора в указанной сфере, достижение эффективности справедливого правосудия, связанного с исполнением судебных актов, а также совершенствование правоприменительной практики в этой области.

Данное диссертационное исследование в определённой степени направлено на реализацию задач, предусмотренных Законом Республики Узбекистан от 29 августа 2001 года № 257-П «О прокуратуре», Законом Республики Узбекистан от 29 августа 2001 года № 258-П «Об исполнительном производстве по судебным актам и актам других органов», Указом Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Указом Президента Республики Узбекистан от 11 августа 2022 года № УП-6118 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы исполнения судебных актов и актов других органов», Указом Президента Республики Узбекистан от 3 января 2024 года № УП-1 «О дополнительных мерах по реформированию системы исполнения судебных актов и актов других органов и цифровизации отрасли», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 25 ноября 2020 года № ПП-3016 «Об организации деятельности Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 25 ноября 2020 года № ПП-3070 «Об организации Центра внедрения информационно-коммуникационных технологий Бюро принудительного исполнения при Генеральной прокуратуре Республики Узбекистан», Постановлением Президента Республики Узбекистан от 13 марта 2019 года № ПП-4236 «О мерах по дальнейшему повышению эффективности исполнения судебных актов и актов других органов» а также иными нормативно-правовыми актами, регулирующими данную сферу.

¹ Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы». <https://lex.uz/docs/5841063>

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данная диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики И. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Вопросы прокурорского надзора за соблюдением законов при исполнении судебных актов и его совершенствования в нашей Республике не получили достаточного научного освещения. Указанная проблематика лишь в отдельных аспектах была исследована на уровне научных работ К.С. Аvezова, Г.Ш. Бурхоновой, Э.Э. Эгамбердиева, А.О. Хамидова, М.М. Мамасиддикова, М.К. Уразалиева, М.Х. Рустамбаева, И.Р. Рустамбекова, Ш.Ш. Шорахметова, А.М. Сулеймановой, У.А. Тухташевой, В.Э. Умаралиева, Ю.А. Ходжиева, С.Б. Холбаева и других учёных. Среди них Ш.Ш. Шорахметов, М.М. Мамасиддигов и У.А. Тухташева исследовали место исполнительного производства в системе права, а Ю.А. Ходжиев проводил изыскания по условиям и порядку принудительного исполнения судебных решений.

В последние годы Г.Ш. Бурхонова осуществила сравнительно-правовой анализ вопросов правового обеспечения управленческой деятельности системы принудительного исполнения, А.О. Хамидов посвятил свои исследования проблемам дальнейшего совершенствования организационно-правовых основ обеспечения исполнения судебных решений.

В государствах – участниках СНГ отдельные аспекты обеспечения исполнения судебных актов рассматривались в научных трудах А.Х. Агеева, Ю.А. Артемьевой, Ш.К. Акчабаева, Е. Абайделдинова, К.Л. Брановицкого, Д.Х. Валеева, Е.Н. Воронова, Я.П. Горбуновой, В.А. Гуреева, О.П. Гурева, В.В. Дмитриева, О.В. Исаенковой, И.М. Зайцева, В.В. Захарова, М.А. Клепниковой, Е.Н. Кузнецова, Д.А. Марданова, А.М. Морозовой, М. Мусина, И.В. Решетниковой, З.З. Саттаровой, М.С. Сергеева, С.Л. Сергеевой, С.И. Семёновой, Е.Г. Стрельцовой, Н. Сергийенко, Н.В. Трошиной, М.К. Филиппова, М.Ю. Чельшева, М.К. Юкова, В.В. Яркова и других учёных.

